


61. 21 dan 100 gacha bo'lgan sonlarning o'qilishi va yozilishi

Tayanch so'zlar:


cho't
o'nliklar va birliklar
ikki xonali sonlar



Qonuniyatni aniqlang.



Toshchalar tizilgan simli
chorcho'p **cho't** deb ataladi.
Har bir simdagi toshchalar
sonda nechta birlik, o'nlik va
yuzlik borligini ko'rsatadi.



1. Har bir misol uchun shu misol joylashgan qatordan to'g'ri
javobni toping. Javoblarga mos harflardan qanday so'z
hosil bo'ladi?

$10 + 2 + 4 + 3$	U – 13	O – 20	E – 18	A – 19
$18 - 4 - 3 - 2$	B – 9	V – 8	G – 10	T – 11
$10 - 6 + 7 + 5$	I – 15	O – 6	A – 16	U – 17
$3 + 4 + 5 + 6$	R – 17	K – 18	T – 16	M – 19



2. Cho'tlarda qanday sonlar belgilangan?

42			



3. Quyidagi sonlarni ayting.

3 o'nli. 4 birl.

5 o'nli. 6 birl.

7 o'nli. 2 birl.

1 o'nli. 9 birl.


3 o'nli. 7 birl.

2 o'nli. 0 birl.

61. 21 dan 100 gacha bo'lgan sonlarning o'qilishi va yozilishi



4. Har bir dastada 10 ta likopcha bor. Yuqori tokchada nechta likopcha bor? Pastki tokchada-chi? Ikkala tokchada jami nechta likopcha bor? Shu sonlardan foydalanib, 4 ta tenglik yozing.





5. Misollarni yeching.

$20 + 7 =$						$70 + 1 =$						$30 + 5 =$					
$60 + 1 =$						$50 + 2 =$						$50 + 8 =$					



6. Sinfdoshingizga "Kim tezroq" o'yinini taklif eting. Kim qonuniyatni tezroq topadi va o'z jadvalini tez va to'g'ri to'ldiradi?

26	21		27	
56		50	57	
86	81	80		82

33	43		13	
35		65	15	
38	48	68		98



7. Aziz ikki xonali son o'yladi. Unda o'nliklar soni 6 ga teng, birliklar soni esa 3 ta kam. U qanday son o'ylagan?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



8. Lola ikki xonali son o'yladi. Bu sonning raqamlari yig'indisi 5 ga teng. Bu qanday sonlar bo'lishi mumkin? Ularni yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--